

BADIY ASARLAR VOSITASIDA TALABALARDA SHAXSIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHGA ANTROPOLOGIK YONDASHUVDAN FOYDALANISH

Mavluda Qodirova

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14243511>

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy asarlarning talabalarda shaxsiy sifatlarni rivojlanirishdagi o'rni antropologik yondashuv asosida tahlil qilingan. Antropologik yondashuv talabaning inson sifatidagi mohiyatini, uning individual va jamoaviy rivojlanishini o'rganishda asosiy omil sifatida ko'rib chiqiladi. Antropologik yondashuv orqali badiiy asarlarning ta'lif va tarbiyadagi rolini chuqurroq o'rganish imkoniyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: badiiy asarlar, antropologik yondashuv, ta'lif va tarbiya, shaxsiy sifat, talaba (bo'lajak pedagog).

Badiiy asarlar vositasida talabalarda shaxsiy sifatlarini rivojlanirishga nisbatan antropologik yondashuv talabalarning avtobiografiysi bilan tanishish ular tomonidan asar qahramonlari siyosida aks etgan shaxsiy sifatlarga nisbatan munosabatlarini o'rganishga imkon beradi. Avtobiografik manbalar talabalarning hayotida kechgan tarbiya dinamikasiga xos jihatlarni tahlil qilish, tanqidiy o'rganishga imkon beradi [1].

Masalan, Abu Nasr Forobiy hazratlari madaniyatli insonning birinchi belgisi va nishonasi Alloh ma'rifati, ya'ni Allohnini tanish ekanini o'qtirganlar. U zot madaniyatli insonlar yashaydigan shaharda Allohnini tanigan odamgina madaniyatli bo'la olishini, adolatli va insofli bo'lishini, Alloh to'g'risida sog'lom aqidada bo'lishi lozimligi to'g'risida so'z yuritadi [2]. Demak, Allohnini tanimagan va unga iymon keltirmagan kaslar – buyuk ajdodimiz fikricha – madaniyatsiz kishilardir. Zotan, haqiqiy odob-axloq ham Yaratganni bilish, uning buyruqlari va ta'qiqlariga amal qilish bilan namoyon bo'ladi.

Talabalarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlanirishda buyuk mutaffakkirlar tomonidan yaratilgan didaktik vositalar alohida ahamiyatga ega. Pedagogik bilimlar taraqqiyotida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan badiiy hamda ilmiy-ommabop asarlar alohida o'rinni egallaydi. Chunki ularda ma'naviy-intellektual tarbiyaning asosiy yo'nalishlari va inson aqliy faoliyatini rivojlanirish qonuniyatlari o'z ifodasini topgan. Chunki pedagogik ta'lifotlar tarixida buyuk mutaffakir ajdodlarimizning ilmiy-badiiy merosi muhim o'rinni egallaydi. Ular tomonidan yaratilgan asarlarda millatimiz yoshlarining aqliy, ma'naviy, madaniy kamolotini ta'minlashga xizmat qiladigan ko'plab yondashuvlar o'z aksini topgan. Bunday qarashlar bugungi kunda ham ta'lif-tarbiya mazmunini boyitishga o'ziga xos tarzda xizmat qiladi.

Pedagogik g'oyalar turli davrda jamiyat va shaxs taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq holda vujudga kelgan va muayyan davrning ijtimoiy buyurtmasini o'zida mujassamlashtirgan. Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik mahoratini maqsadga muvofiq holda shakllantirish uchun uzoq davrlar mobaynida yaratilgan pedagogik merosning muhim jihatlariga e'tibor qaratgan holda saralash va ta'lif-tarbiya mazmuniga tadbiq etish lozim. Ta'lif mazmuniga buyuk mutaffakkirlar merosidan talabalarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlanirishga xizmat qiladigan yondashuvlarni ajratib olib, singdirish taqozo qilinmoqda.

Buyuk mutafakkirlar o'z asarlarini asosan ta'lif-tarbiyaning mazmuni va usullarini boyitishga yo'naltirilgan holda yaratganlar. Eng qadimgi bilish usullari ifodalangan yozma yodgorliklar yunon tarixchisi Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya" asarlari, "Avesto" va

Urxun-Yenesey bitiklari, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk"asari kabi manbalar hisoblanadi.

Ushbu manbalarni o'rganish va tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, ajdodlarimiz juda qadim zamonlardan boshlab, shaxs ta'lim- tarbiyasiga alohida talablar bilan yondashganlar. Chunki ular yoshlarning aqliy faoliyatlarini rivojlantirish, ularda zukkolik sifatlarini tarkib toptirishga intilganlar. Jumladan, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" ajdodlarimizning o'tmishdagi tili, yozuvi, ta'lim- tarbiyasi, insonni faollashtirishga oid ilk qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan. Ushbu asarda hayoliy obrazlar yordamida insonning tasavvurini rivojlantirish asosida ta'lim-tarbiya berish yo'llari ko'rsatilgan.

Asarda ta'lim-tarbiya hayotning eng muhim asosi ekanligi ta'kidlanadi. Asarda ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi, mazmuni, shakllari, usullari, yo'llari, vositalari ko'rsatilgan. Asarda shaxsnинг aqliy faolligini ta'minlovchi ko'plab falsafiy-pedagogik g'oyalar o'z ifodasini topgan bo'lib, ushbu qarashlardan talabalarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishda samarali foydalanish imkoniyati mavjud.

Ma'lumki, qaysi davrda bo'lmasin inson harakatlarining asosini bilim tashkil etadi. Zardushtning ta'biri bilan aytganda, hayotning asosini ma'rifat tashkil etadi. Zardushtiylar ushbu qoidaga amal qilgan holda o'z farzandlariga aqliy, ma'naviy, diniy, jismoniy yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya bergenlar. Zardushtiylik dinida yoshlarning jismoniy, aqliy ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilib, u ma'naviy poklik bilan uyg'un tarzda talqin etilgan. Yoshlarga ma'naviy poklikning asoslari haqida zarur bilimlar berilgan.

Zardushtiylar davrida yoshlarning yozma savodxonligini oshirishga alohida e'tibor qaratganlar. Shu bilan bir qatorda ularga matematika, astronomiya, tib bilimi, tarix, falsafa, huquqshunoslik, gigiena singari dunyoviy fanlardan bilim berilgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning mantiqiy fikrlash salohiyatini rivojlantirishdan iborat bo'lgan.

Ta'limda ko'rgazmali qurollardan, hikoya, suhbat, muloqot usullaridan keng foydalanilgan. O'tilgan mavzularni mustaqil takrorlab tushunib olishga alohida e'tibor qaratilgan. Ustoz-shogird munosabatlarining me'yorlari hamda o'qitish usullari qat'iy belgilab qo'yilgan. Ustozlar donishmandlik sirlarini egallashi lozimligi haqida Avestoda alohida ko'rsatib o'tilgan. Avestoda yoshlarning aql-zakovatini o'stirishga alohida talablar qo'yilgan. Zardusht o'z xalqi, farzandlari uchun yomon muallimlar bo'lmasligini istaydi. Ushbu fikr bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash sifatini takomillashtirish uchun ham muhim ahamiyatga ega [3].

Mutaffakkir ajdodlarimiz yoshlarda iymon, ilm va amal birligini tarkib toptirishga alohida e'tibor qaratganlar. Ular shaxs iste'dodi, aqliy-fikriy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga harakat qilganlar. Shaxsnинг ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun qulay muhit yaratishga intilganlar. Natijada shaxsnинг aqliy-ijodiy faolligi yaqqol namoyon bo'lgan.

O'sha davrda yaratilgan Yusuf Xoc Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnama", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul- hakoyiq", Sa'diyning "Guliston", Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarlarida ta'lim-tarbiya masalalariga keng o'rinn ajratilgan. Al-Forobiyning asarlaridagi ta'lim- tarbiyaga oid fikrlar pedagogika fani uchun alohida qimmatga ega.

Yusuf Xoc Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida markaziy masala axloq, odob, ilm, insoniylik va adolat hisoblanadi. Podshoh va amaldorlardan tortib xunarmand va dehkonlargacha jamiyatdagi barcha toifalarning xuquq va burchlariga o'z munosabatini bildiradi. Alloma borliq xaqida bilimlarga fikr yuritganda odam bilishi mumkin bo'limgan narsa, bilim bilan yechilmaydigan

jumboq yo'qligini, bilim orqasida osmon sari yo'l ochilishi, bilim uchun tinmasdan o'rganish kerakligini o'qtiradi [5].

Kaykovusning "Qobusnomा" asari XI asrda yuzaga kelgan yirik tarbiyaviy xarakterga ega asar hisoblanadi. To'liq ismi Unsurul Maoliy Kaykavus. U 60 yoshida ug'li Gilonshahga atab "Qobusnomа" asarini yozdiradi Asarda har bir yosh egallashi kerak bo'lgan aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan bog'liq faoliyat turlari ochib beriladi. Kaykovusning katta xizmati uning yoshlarni hayotga tayyorlashda ularni har tomonlama kamolga yetkazishning nazariy masalalarini amaliy faoliyatga tadbipi nuqtai nazaridan ifodalanishi bilan qimmatli asar hisoblanadi.

Xonliklar davrida ham madrasalardagi ta'lif-tarbiya jarayoni takomillashdi. Natijada yetuk aql-idrok sohiblari yetishib chiqqan. Shu bilan bir qatorda mazkur davrda maktab va madrasalarda dunyoviy bilimlar berish ma'lum darajada cheklangan..

XIX-asrga kelib, madrasalardagi ta'lif mazmuni siyosiy hayotning o'zgarishi bilan bog'liq tarzda takomillashtirilgan. Ta'lif mazmuniga yoshlarning ilmiy dunyoqarashi, faoliyat yo'nalishini kengaytirishga xizmat qiladigan turk, rus, fransuz, ingлиз tillari, fizika, ziroatchilik, hisob, gigiena, psixologiya, metodika, trigonometriya, siyosiy iqtisod, tijorat kabi o'quv fanlari kiritilgan.

Sharq uyg'onish davrida pedagogik ta'lifotlar yangi bosqichga ko'tarilgan. Unda asosan, insonning aqliy kamolotini ta'minlash orqali uning bilish faoliyatlarini rivojlantirishga oid didaktik yondashuvlarning vujudga kelishiga zamin yaratilgan.

Ajdodlarimiz suhbatdan ta'lif-tarbiyaning samarali usuli sifatida foydalanganlar. Suhbat jarayoni toliblarga zavqu-shavq bag'ishlab, ularning bilish faoliyatlarini rivojlantirish imkonini bergen. Toliblar ustoz suhbat yordamida ta'lif yo'nalishini tanlaganlar. Pedagogik ta'lifotlar mudarrislar tomonidan toliblar ongiga singdirilgan. Mudarrislar pedagogik fikrlar qamrovini kengaytirib, turli shaharlardagi madrasalarga borib, yoshlarga ta'lif bergenlar.

Ushbu talablar bugungi kunda oliy ta'lif muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar uchun ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularning yuksak saviyali, bilimdon, zukko va ziyraklik bilan talabalarga yondashishlari kerakligini anglatadi.

References:

1. Фирсова А.Е. Применение антропологического подхода в современной отечественной педагогической теории и инновационной образовательной практике: дис. ... канд.пед.наук. – Волгаград: 2014. – С. 3.
2. Ibrohimjonova, M., & Ibrohimova, N. (2023). ABU NASR FOROBIY HAYOTI VA IJODI. FAROBIYNING MUSIQA TARBIYASI VA, MUSIQA HAQIDA KATTA KITOB"ASARI HAQIDA. *Science and innovation in the education system*, 2(7), 149-153.
3. Bahtiyor og, Y. I. (2024). "AVESTO" MANBALARI ASOSIDA JAMIYAT TARAQQIYOTI, OILA VA NIKOH MASALALARI. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMUY JURNALI*, 4(4), 15-19.
4. Akmalovna, A. S., & Qizi, K. R. A. (2021, June). ANCESTRAL HERITAGE IS A PRICELESS TREASURE. In *Archive of Conferences* (pp. 124-126).
5. To'xliyev, B. (2020). "Qutadg 'u bilig" da turkiy folklor motivlari. *Oltin bitiglar-Golden Scripts*, 3(3).